XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 25-fevral VII-37-12-10-147-K/26 Olmaliq shahar

Olmaliq shahar markaziy ko‘chalaridagi tadbirkorlik subyektlari bilan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarorining 8-bandi (a) kichik bandiga asosan Olmaliq shahar hokimi o‘rinbosari, shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i M.Mo‘minovning 2026-yil 22-yanvardagi 1/24-sonli taklifi hamda Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2026-yil 7-fevraldagi Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining xulosasidan kelib chiqib, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarorining 8-bandi (a) kichik bandi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Olmaliq shahar markaziy ko‘chalaridagi tadbirkorlik subyektlari bilan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yagona tariflari **ilovaga** muvofiq maqullansin.

3. Olmaliq shahar markaziy ko‘chalaridagi tadbirkorlik subyektlari bilan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yagona tariflari ilovada keltirilgan tariflarga muvofiq 2026-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llanilishi belgilansin.

4. Olmaliq shahar hokimining matbuot kotibi - axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi **S.Boymirzayev,**“Olmaliq hayoti”, “Алмалыкский рабочий” gazetalariga Olmaliq shahar markaziy ko‘chalaridagi tadbirkorlik

subyektlari bilan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yagona tariflari 2026-yilning 1-yanvardan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror imzolangan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Kengashning Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **Z.Adilov** hamda shahar hokimining o‘rinbosari – Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i **M.Mo‘minov** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KARIMOV DANIYAR DILMURATOVICH**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2026-yil 25-fevraldagi
VII-37-12-10-147-K/26 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilarning to‘plash standartlarini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar va xronologik ishlarning o‘rtacha yillik natijalariga asosan Olmaliq shahar markaziy ko‘chalaridagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuziladigan shartnomaga belgilangan tariflar

№	Maishiy chiqindilarni yig‘ish inshoati	hisoblash birligi	Olmaliq shahar	o‘lchov birligi	Tasdiqlangan tarif (so‘m QQSsiz) *	Tasdiqlangan tarif (so‘m QQS bilan) *
1	Uy-joy haqida ma’lumot (yakka tartibdagi ko‘p qavatli uy)	1 rezident	0,750	1 m^2	74 000	82 880
2	Yozgi kottejlar	1 uchastka	0	1 m^2	74 000	82 880
3	Ma’muriy va boshqa muassasalar (tashkilotlar, ofislar va boshqalar	1 hodim	0,409	1 kishi	7 000	7840

4	Mehmonxonalar, yotoqxonalar dam olish uylar va boshqalar	1 o‘rin	0,405	1 kishi	7 000	7840
5	Xususiy maktab-internatlar, mehribonlik uylari, qariyalar uylari va boshqalar	1 o‘rin	0,616	1 kishi	7 000	7840
6	Ovqatlanish muassasalari (kafelar restoronlar, oshxonalar, barlar va boshqalar	1 o‘rin	0,571	1 kishi	7 000	7840
7	Bolalar bog‘chalari	1 o‘rin	0,202	1 kishi	7 000	7840
8	Maktablar, kolejlar, unversitetlar va boshqa ta’lim muassasalari	1 talaba uchun	0,012	1 kishi	7 000	7840
9	Klinikalar	1 tashrif uchun	0,03	1 kishi	7 000	7840
10	Kasalxonalar, sanataroriyalar va boshqalar	1 yotoq	1,035	1 kishi	7 000	7840
11	Teatrlar, kino teatrlar, konsert zallari, kutubxonalar, klublar va boshqalar	1 qo‘nish joyi uchun	0,06	1 m^2	74 000	82 880
12	Sartaroshxonalar	1 o‘rindiq	0,206	1 kishi	7 000	7840

13	Stadionlar, sport maydonchalari va boshqalar	1 o‘rin	0,05	1 kishi	7 000	7840
14	Do‘konlar, supermarketlar, qurilish materiallari do‘konlari, palatkalar va boshqalar	chakana savdo maydoni 1 m^2	0,356	1 m^2	74 000	82 880
15	Dorixonalar	chakana savdo maydoni 1 m^3	0,064	1 m^2	74 000	82 880
16	Transport vositalari, savdo rastalari va boshqalardan savdo qilish	1 savdo joyi	2,432	1 m^2	74 000	82 880
17	Musiqa, ko‘rgazmalar va boshqalar	umumiy maydoni 1 m^2	0,002	1 m^2	74 000	82 880
18	Sport, gimnastika va o‘yin zallari va boshqalar	umumiy maydoni 1 m^2	0,19	1 m^2	74 000	82 880
19	Ulgurji savdo bazalari, oziq-ovqat omborlari va boshqalar	umumiy maydoni 1 m^2	0,034	1 m^2	74 000	82 880
20	Ulgurji bazalari, sanoat tovarlar omborlari va boshqalar	umumiy maydoni 1 m^2	0,023	1 m^2	74 000	82 880

21	Temir yo‘l stansiyalari va avtobus bekatlari aeraport va boshqalar	umumiy maydoni 1 m^2	0,006	1 m^2	74 000	82 880
22	Plyaj	umumiy maydoni 1 m^2	0,01	1 m^2	74 000	82 880
23	Maishiy xizmatlar, davlat xizmatlari	umumiy maydoni 1 m^2	0,1	1 m^2	74 000	82 880
24	Kir yuvish, kimyoviy tozalash, kiyim kechak va tikish ustaxonalari, poyavzal tamirlash ustaxonalari	umumiy maydoni 1 m^2	0,013	1 m^2	74 000	82 880
25	Hamomlar, saunalar va boshqalar	umumiy maydoni 1 m^2	0,095	1 m^2	74 000	82 880
26	Maishiy texnika, elektron jihozlar va boshqalar	1 ish joyi	0	1 m^2	74 000	82 880
27	Avtoturargohlar, avtomabil yuvish joylari, avtomobilni ta’mirlash ustaxonalari va yoqilg‘i quyish shoxobchalari	1 to‘xtash joyi	4,04	1 m^2	74 000	82 880
28	Huquqiy omaviy tadbirlarni tashkil etish joyi	1000 ishtirokchi	0,342	1 kishi	7 000	7840

Izoh: Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi qaroriga asosan belgilangan tariflar o‘zgarib boradi.